

XX ASRNING 40 – 90 - YILLARIDA MUZEY FAOLIYATINING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI



Rustamov Davron Mukhamedovich

Namangan davlat

universiteti

o'qituvchisi

rustamovdarvon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019685>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 40-90-yillarida O'zbekistonda muzey ishining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida muzeylar faoliyatining o'ziga xos jihatlari, ularning mafkuraviy va siyosiy targ'ibot markaziga aylanishi, fondlarni saqlash va boyitish borasidagi ishlari yoritilgan. Shuningdek, urushdan keyingi davrda muzeylar tarmog'ining kengayishi, yangi ekspozitsiyalar tashkil etilishi, memorial muzeylarning ochilishi hamda ilmiy-ma'rifiy faoliyatning rivojlanishi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida muzeylarning jamiyat hayotidagi o'rni va ularning madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muzey ishi, ekspozitsiya, Ikkinchi jahon urushi, sovet mafkurasi, memorial muzeylar, ilmiy-tadqiqot, madaniy meros, o'lkashunoslik, ko'rgazma, targ'ibot

Аннотация: В данной статье анализируются этапы развития музейного дела в Узбекистане в 40 – 90 - е годы XX века. Особое внимание уделено специфике деятельности музеев в годы Второй мировой войны, их превращению в центры идеологической и политической пропаганды, а также работе по сохранению и пополнению музейных фондов. Кроме того, рассматриваются вопросы расширения сети музеев в послевоенный период, создания новых экспозиций, открытия мемориальных музеев, а также развития научно-просветительской деятельности. В результате исследования раскрыта роль музеев в общественной жизни и их значение в сохранении культурного наследия.

Ключевые слова: музейное дело, экспозиция, Вторая мировая война, советская идеология, мемориальные музеи, научные исследования, культурное наследие, краеведение, выставка, пропаганда

Annotation: This article analyzes the stages of development of museum activity in Uzbekistan during the 1940s–1990s. Particular attention is paid to the specific features of museum work during the Second World War, including their transformation into centers of ideological and political propaganda, as well as their role in preserving and enriching museum collections. The study also examines the expansion of the museum network in the post-war period, the establishment of new exhibitions, the opening of memorial museums, and the development of scientific and educational activities. The research highlights the role of museums in public life and their importance in preserving cultural heritage.

Keywords: museum activity, exhibition, Second World War, Soviet ideology, memorial museums, scientific research, cultural heritage, local history studies, exhibition practice, propaganda

Kirish. XX asrning 40 - 90-yillari O‘zbekistonda muzey ishining murakkab va ziddiyatli rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muzeylar nafaqat ilmiy-ma’rifiy muassasa sifatida, balki sovet mafkurasini targ‘ib qiluvchi muhim vosita sifatida ham faoliyat yuritdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida muzeylar faoliyati tubdan o‘zgarib, ularning asosiy e’tibori front va front ortidagi hayotni yoritish, xalqni ruhlantirish hamda vatanparvarlik g‘oyalari singdirishga qaratildi. Urushdan keyingi davrda esa muzeylar tizimi qayta tiklanib, yangi ekspozitsiyalar yaratildi, ilmiy tadqiqot ishlari kengaydi hamda muzeylar tarmog‘i sezilarli darajada rivojlandi. Shu bilan birga, bu jarayonlar ko‘p jihatdan siyosiy mafkura ta’siri ostida kechdi. Mazkur maqolada aynan shu tarixiy bosqichlarda muzey ishining rivojlanish xususiyatlari tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili. XX asrning 40 - 90-yillarida muzey ishining rivojlanishi masalasi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Muzeyshunoslik nazariyasining umumiy asoslari rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular muzeylarni ijtimoiy-madaniy institut sifatida talqin qilganlar [1]. Xususan, A. M. Razgon muzeyni tarixiy xotirani saqlovchi va uni jamiyatga yetkazuvchi muhim ilmiy-ma’rifiy muassasa sifatida baholaydi.[2]. Sovet davri tadqiqotlarida muzeylar faoliyati ko‘proq mafkuraviy nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotchilar muzeylarning kommunistik g‘oyalarni singdirishdagi roliga alohida e’tibor qaratganlar (Shulepova, 1989; Dukelskiy, 1991). Ushbu yondashuvga ko‘ra, muzeylar nafaqat madaniy merosni saqlovchi maskan, balki ideologik tarbiya vositasi sifatida ham qaralgan. [3]. Ikkinchi jahon urushi davriga oid tadqiqotlarda muzeylar faoliyatining o‘ziga xos jihatlari keng yoritilgan. Xususan, fondlarni saqlash, evakuatsiya qilish, ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etish va aholini ruhlantirish kabi masalalar alohida o‘rganilgan.[4] Bu tadqiqotlarda muzey ekspozitsiyalari front va front ortidagi qahramonlikni targ‘ib qilishgan.[5]

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, XX asrning 40–90-yillarida muzeylar faoliyati ilmiy-ma’rifiy va mafkuraviy omillar uyg‘unligida rivojlangan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarixiylik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, davriylik va xolislik tamoyillariga asoslangan. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, Ikkinchi jahon urushi yillari hamda urushdan keyingi davrda O‘zbekiston hududidagi muzeylar faoliyati, muzey ishidagi o‘zgarishlar, yangi muzeylar faoliyati ochib berildi.

Tahlil va natijalar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muzey ishi qanchalik ilmiy asosda rivojlantirilmasin, baribir sovet davlati mafkurasini targ‘ib qiluvchi markazga aylandi va ular siyosatlashtirildi.

1941-yil iyunda SSSR ning ikkinchi jahon urushiga tortilishi bilan xalqning tinch va osoyishta hayoti buzildi. Ko‘pgina muzeylar o‘z binolarini evakuatsiya qilingan muassasalar uchun bo‘shatib berdi.

Respublika muzeylar tarmog‘i vaqtincha qisqardi: birgina O‘zbekiston tarixi, madaniyati va san’ati muzeyi nomi ostida San’at, Adabiyot va O‘zbekiston tarixi, tabiat muzeyi bilan birga Politexnika muzeyi birlashdi. Ateistik targ‘ibot muzeyi konservatsiya qilinadi. Respublikaning ko‘pgina muzeylari ekspozitsiyalari yig‘ishtirilib, ilmiy tadqiqot faoliyati hamda shtatlar qisqartirildi. Tarix muzeyidan 9 kishi, Samarqand muzeyidan 10 dan ortiq kishi frontga ketdi.

Front orqasida qolgan muzey xodimlari Vatan oldidagi burchlarini sharaf bilan ado etdilar. Ular qisqa muddat ichida san’at va tarix bo‘limlari zallarida bir qator ekskursiyalar turkumini yaratib, qator ko‘rgazmalar tashkil qildilar. front va uning orqasidagi xalqiga qahramonona jasoratini ko‘rsatish bo‘yicha mexnatkashlar orasida katta ommaviy siyosiy ish olib bordilar. Shu bilan birga o‘tgan yillar davomida to‘plangan barcha muzey boyliklari ham saqlab qolindi.

Tashkil etilgan ekspozitsiyalarda tarixiy namunalar vositasida xalqimizning erksevarligi, ularning mustaqillik uchun kurashi qayd etildi. Asosiy diqqat o'tmishdagi qahramonlik namunalari namoyishi va tashviqotiga qaratildi. Ko'plab shaharlar va sanoat korxonalarini to'raligicha dushman qo'li ostiga tushib qolaётgan edi. Shu boisdan ikkinchi jahon urushining dastlabki davridagi xarbiy voqealarni yaxshi yoritib bo'lmas edi. Bu bir tomondan xalqning ruhini cho'ktirsa, ikkinchi tomondan mamlakatning siyosiy tuzumi bunday xolislikka yo'l qo'ymas edi. Frontlarda vaziyat o'zgarishi bilan armiyaning muvaffaqiyatli harakatlari, bosib olingan hududlarning ozod qilinishi kabi mavzular markaziy hamda respublika muzeylari ekspozitsiyalarida o'zlarining munosib ifodalarini topdi.

Ekspozitsiyani tayyorlash jarayonida qurol va kiyim – kechaklarning katta kolleksiyasi vujudga keldi. Muzey front jangchilari mukofotlari, esdalik nishonlar, suratlardan tashqari front jasoratlarini haqidagi esdalik va hikoyalarga ham ega bo'ldi.

Muzeylarning xodimlari maktab o'quvchilari, ishchilar, kolxozchilar va xizmatchilarga urush haqidagi materiallarni sakdash xamda to'plashga yordam berish haqida murojaat qildilar. Joylarda zamondoshlarning kelgusi avlodga front va uning orqasidagi qaxramonona kurashlar to'g'risida hikoya qiluvchi barcha buyum hamda materiallarni saqlash, to'plash haqidagi burchlari to'g'risida keng tushuntiruv ishlari olib borildi.

Urush qahramonlarining frontdan turib yozgan xatlari, mexnat qahramonlarining o'z zimmlariga olgan majburiyatlari, kolxozlarda frontga yordam berish haqida o'tkazilgan majlislarining qarorlari muzey uchun yig'ib boriddi. Front haqidagi xujjatli materiallar bilan birga "Вперёд на врага", "Красноармейская Правда", "Во Славу Родины", "Музеество" kabi front gazetalarining to'plamlari xam vujudga keldi.

Ekspozitsiya bo'limiga Stalingrad ostonalaridagi janglarda halok bo'lgan O'rta Osiyolik 11 qahramonning o'lmas jasorati haqida hikoya qiluvchi partiya oblast qo'mitasining xati xam qo'yildi. Bir qator xujjatlar Stalingradni qayta tiklashda o'zbek xalqi ko'rsatgan yordamni aks ettirdi.

Muzeylarning ilmiy xodimlari respublikamiz sanoat korxonalaridan materiallar yig'ishga kirishdilar. Toshkent To'qimachilik kombinatidan kombenizonlar, pufaykalar, harbiy kiyim-boshlarning butun boshliq komplektlari va boshqa diqqatga loyiq materiallar yig'ildi. Muzeyga ishlab chiqarish musobaqalari, "front orqasi gvardiyachilari" faxriy unvoniga erishgan kishilar haqida hikoya qiluvchi jangovar varaqaalar, devoriy gazetalar, ko'p nusxali gazetalar keltirildi. Kombinat dispanseri qoshida harbiy hospital joylashgan edi. Ishchilar ishdan so'ng xar kuni yarador jangchilar va komandirlarni ko'rgani kelar, ularga zarur yordam ko'rsatar edilar. Safga qaytgan jangchilar va ofitserlardan kombinat kollektivi nomiga samimiy minnatdorchilik tuyg'ulari bitilgan xatlar kelib turardi. Frontchilarning bunday xatlari ham muzeydan o'rin oldi.

Urushning dastlabki yillarida statsionar va ko'chma ko'rgazmalar tashkil qilish ommaviy ma'rifiy ishning keng rivoj topgan shakliga aylandi, ularning eng mashxuri "Vatanimiz jasoratnomasi" (1942-yil) mavzusidagi ko'rgazmalar bo'ldi. Muzey xodimlari sanoat korxonalarini, maktablar, choyxonalarida frontlardagi voqealar, xalqaro ahvol, jangchilarimizning qaxramonliklari, Front orqasidagi mehnatkashlarning fidokorona mexnatlari haqida tez-tez ma'ruzalar, suhbatlar uyushtirdilar. Shu bilan birga ular kolxoz va sovxozlarda, sanoat korxonalarini va qurilishlarda mehnat unumdorligini yanada oshirish, frontga yordamni kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamdagi G'oyaviy-tarbiyaviy ishlarni ham olib bordilar.

Ommaviy bayramlar munosabati bilan ko'chma ko'rgazmalar tashkil qilindi. Ko'rgazmalarining mavzulari turlicha edi: "1812-yil", "Fuqarolar urushi qaxramonlari", "Osipov isyonining bostirilishi", "Urgan edik, urayapmiz va yana uramiz", "Fashizm insoniyatning manfur

dushmani”, “Shiroq jasorati” kabi mavzular shular jumlasidandir. 1942-yili O‘zbekiston xalqlari tarixi va san’ati muzeyi 12 ta ko‘rgazma tashkil qildi.[6; 28]

Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonda fanning turli sohalarini qamrab olgan ilmiy-tadqiqot muassasalarining keng tarmog‘i vujudga keldi. 1943-yil respublika hududida ilmiy tadqiqot instituti, 23 ta turli ilmiy stansiya, 2 ta rasadxona, 1ta muzey va turli ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud edi.

SSSR XKS ning 1943-yil 27-sentyabrdagi “O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida” qabul qilgan qaroridan so‘ng boshqa institutlar qatori Tarix muzeyi ilmiy tadqiqot va siyosiy-ma’rifiy ishlarni olib boruvchi muzey sifatida San’at muzeyidan ajratilib O‘zSSR FA O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi nomi ostida FA tarkibiga kiritildi. O‘z FA tarkibiga Tabiat muzeyi ham kiritildi. Shunday qilib, respublikaning bu muassasalari faoliyatida yangi, muhim sahifa ochildi.

Muzeydan tashqari ko‘rgazmalarni yaratish bobida ham muzeylar aktiv faoliyat ko‘rsatdilar. Ma’ruzaviy targ‘ibot kuchaydi, respublika muzeylari aholi o‘rtasida tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib boruvchi haqiqiy markazlarga aylantirildi. Ular ommani g‘oyaviy-siyosiy tarbiyalash sohasida katta ishlarni amalga oshirdilar.

Urush davrining qiyinchiliklari muzeylarning ahvoliga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina muzeylar qisqartirilgan yoki butunlay yopib qo‘yilgan edi. Ko‘plab muzey xodimlari ikkinchi jaxon urushi frontlarida halok bo‘lgani uchun mutaxassislar etishmas edi.

Muzey ishini qayta tashkil qilish bo‘yicha O‘zbekiston hukumati bir qator qarorlar qabul qildi. Ana shu qarorlarni amalga oshirish maqsadida muzeylarda ilg‘or kolxoz-sovxo va MTS lar tarixini yorituvchi, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yaxshi namunalarini namoyish etuvchi, ishlab chiqarish ilg‘orlarining ish uslubi bilan yaqindan tanishtiruvchi ekspozitsiyalar paydo bo‘la boshladi.

O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi O‘zbekiston xalqlari tarixiga oid doimiy ekspozitsiya tashkil etishga kirishdi. Bu ishda O‘z FA Tarix instituti va O‘rta Osiyo Davlat Universitetining etakchi mutaxassislari katta yordam ko‘rsatdilar. Dastlab “Fevral burjua – demokratik inqilobi” va “Sovet O‘zbekistoni” bo‘limlari tayyorlandi. 1948 -yili “O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamoa va quldorlik tuzumi” hamda “Feodal davlatlar” bo‘limi ochildi 1951-yili tashkil etilgan “Turkiston Chor Rossiyasi tarkibida” bo‘limi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi iqtisodiyot, turmush va madaniyat, O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va uning oqibatlari masalasini bir tomonlama bo‘lsada yoritib berdi.[6; 30]

Keyingi yillarda ekspozitsiyaning barcha bo‘limlari to‘ldirilib kengaytirildi. Natijada 1954-yili qadim zamonlardan boshlab ikkinchi jahon urushi yakunigacha bo‘lgan O‘zbekiston tarixini izchil ifodalovchi ekspozitsiya bunyodga keldi.

O‘zbekistondagi ko‘pchilik muzeylar 1946-1953-yillarda ko‘rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo‘lidan bordi. Ammo bu ko‘p hollarda yuzaki xarakter kasb etar edi. Shu holatlarga chek qo‘yish va muzeylar ishini tubdan yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Madaniyat Ministirligi madaniy-ma’rifiy muassasalari Bosh boshqarmasi huzurida muzeylar ishini muvofiqlashtirish bo‘yicha doimiy harakatdagi uslubiy seminar tashkil etildi.

1953-yildan boshlab ko‘pchilik muzeylarda ekspozitsiyalarni qurishda muayyan burilish yuz berdi. Lekin bunda asosiy e’tibor ko‘proq Sovet davrini har tomonlama yoritishga qaratildi. Masalan, Surxondaryo muzeyining Sovet davri ekspozitsiyasi:

- 1) Ulug‘ Oktyabr inqilobi.
- 2) Fuqarolar urushi.
- 3) O‘rta Osiyoning milliy xududiy chegaralanishi.

- 4) Yer-suv islohoti.
- 5) SSSR xotin-qizlarni ozod qiluvchi mamlakat.
- 6) Sotsialistik industrilashtirish.
- 7) Uchinchi besh yillik davrida xalq xo'jaligi.
- 8) Ulug' Vatan urushi.
- 9) Sovet Ittifoqi – tinchlik, demokratiya va sotsializm tayanchi;
- 10) Surxondaryo viloyatining sanoati, qishloq xo'jaligi, madaniyati kabi bo'limlarni o'z ichiga olgan edi.[7; 34]

Samarqand, Namangan, Farg'ona, Xorazm va Qashqadaryo muzeylarida ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin. Bu davrda respublika o'lkashunoslik muzeylarining tarmog'i ham kengaydi. Masalan: 1959-yil Chirchiq, 1960-yil esa Angren shahar o'lkashunoslik muzeyi, keyingi yillarda yana bir qator shahar va rayon o'lkashunoslik muzeylari tashkil etildi.[8; 16]

1964-yili O'zbekiston tashkil topganligining 40-yilligi munosabati bilan o'z ekspozitsiyalarida respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, shu jumladan, paxtachilik, qishloq xo'jaligi ishlarini mexanizatsiyalash, sanoat, fan va madaniyat sohasidagi zamonaviy yutuqlarni ifodalovchi O'zbekiston xalq xo'jaligi yutuqlari statsionar ko'rgazmasining ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ko'rgazma Toshkentning eng katta va chiroyli bog'laridan biriga joylashtirilib, maxsus pavilonlar, texnik vositalar bilan yoritilgan. Undagi uskunalar, ekspozitsiya materiallari mahorat bilan namoyish etilgan. Bu tomoshabinlarda chuqur taassurot uyg'otib materiallarning chuqur o'zlashtirilishiga yordam beradi. 60-yillarda respublikada yangi muzeylar tashkil etildi. Shu bilan birga mavjud muzeylardagi ekspozitsiyalar to'la qayta qurildi. Bu o'rinda arxeologiya, etnografiya sohasidagi eng yangi ixtirolar, tarix fanining yutuqlari hisobga olindi.

Shu yillarda bir qator memorial muzeylar ochilganligini ko'ramiz. 1963-yili Ulug'bek muzeyi, 1964-yili S. Ayniy muzeyi, 1964-yili Y. Oxunboboyev muzeyi, 1967-yili Xamza muzeyi, 1970-yili Lenin muzeyi, 1972-yili Farg'onada U. Yusupov muzeyi, 1974-yili Yangi yo'lda U. Yusupovning uy muzeyi kabi memorial muzeylar shular, jumlasidandir.[6; 35] Yo'nalishi va maqsadiga ko'ra bu muzeylarning ekspozitsiyalari olimlar, shoirlar, yozuvchilar hamda siyosiy arboblarning hayoti va faoliyatini ko'rsatish bilan birga, muayyan tarixiy davr, uning ruhi va nafasini ham aks ettiradi.

Masalan, Samarqanddagi Ulug'bek memorial muzeyi eksponatlari Temuriylar davri haqida tasavvur berib, ana shu sulola vakili Ulug'bekning buyukligini ko'rsatadi, ayni paytda uning munajjim olim va shaxsiy hayotini xam aks ettiradi.

Samarqanddagi S.Ayniy muzeyining ekspozitsiyasi esa o'ziga xos uslubda yaratilgan. U ortiqcha ta'sir vositalarisiz o'zbek va tojik xalqining mashhur adibi, olim va shoir S.Ayniy ijodiy muxitini tabiiy ravishda ochib beradi, uni qurshagan sharoit hamda hayotni yaqqol aks ettiradi.

XX asrning 60-70-yillardagi muzeyshunoslik O'zbekistonda muzey tarmoqlarini keng ko'lamda kengaytirish ishlarining avj olganligi, moddiy-texnika bazasining tubdan yaxshilanganligi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston muzeylari chiroyli, maxsus qurilgan binolarga ega bo'la boshladilar. Masalan, Davlat san'at muzeyi yangi, shinam binoda o'zining ikkinchi umrini boshladi. Bu yerda tomoshabinlar uchun G'arbiy Yevropa va rus san'atining durdonalari, shuningdek, o'zbek rassomlarining asarlari keng ko'lamda namoyish qilingan. Amaliy san'at muzeyi uchun yangi bino tiklandi. Turkiston harbiy okrugi tarixi muzeyi esa O'rta Osiyo qurolli kuchlarining qudratini va jangovor o'tmishi tarixini ko'rsatuvchi binoda yangi davrini boshladi. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi esa XIX asr me'morchiligining yodgorligi, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan binoga joylashdi. Marg'ilonda Y. Oxunboboyev memorial muzeyi uchun qavatli bino,

Samarqandda Afrosiyobdagi tarix muzeyi va respublika madaniyat va san'at tarixi muzeyi uchun maxsus bino qurildi.

Quyidagi raqamlar muzeylarning tobora rivojlanib, malakali kadrlar bilan mustahkamlanib borayotganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. 1973-yili O'zbekistonda turli yo'nalishdagi 30 ta muzey shu jumladan, 4 ta tarixiy, 4 ta memorial va 15 ta o'lkashunoslik muzeyi bo'lgan. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 10 ta, Samarqand va Farg'onada 5 tadan, Andijonda 4 ta muzey ish olib borgan. 1980-yilga kelib esa respublikada muzeylar soni 33 taga yetdi, tomoshabinlar soni ham 3,7 mln. kishiga ko'paydi.[9; 262]

Keyingi yillarda ekspozitsiyaning barcha bo'limlari to'ldirilib kengaytirildi. Natijada 1954-yili qadim zamonlardan boshlab urush yakuniga qadar bo'lgan O'zbekiston tarixini izchil ifodalovchi ekspozitsiya bunyodga keldi.

O'zbekistondagi ko'pchilik muzeylar 1946-1953 yillarda ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo'lidani bordi.

O'zbekiston Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy muassasalari Bosh boshqarmasi huzurida muzeylar ishini koordinatsiyalash bo'yicha doimiy xarakatdagi metodik seminar tashkil etildi. KPSS MK 1964-yil 12-mayda "Muzeylarning mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalash soxasidagi rolini oshirish to'g'risida" qaror qabul qildi.

1973-yili O'zbekistonda turli yo'nalishdagi 30 ta muzey, shu jumladan 4 ta tarixiy, 4 ta memorial va 15 ta o'lkashunoslik muzeyi bo'lgan. Toshkent shahri va viloyatida 10 ta Samarqand va Farg'onada 5 tadan, Andijonda 4 ta muzey ish olib borgan. 1980-yilga kelib respublikada muzeylar soni 33 taga etdi.[10;16] O'zbekistonda tarixiy, moddiy, ma'naviy va madaniy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va tashviq qilish bilan shug'ullanuvchi ilmiy-ma'rifiy muassasalar muzeylar paydo bo'lishi XIX asrning oxiriga borib taqaladi. Dastlabki muzeylarni tashkil etish va boyitishda taniqli rus olimlari V. Oshanin, N. Mayev, V. Vyatkin, N. Seversov hamda L. Smirnov, K. Mauzer kabi havaskor tadqiqotchilar, Mirza Qosimov, Akrom Asqarov, Mirza Abdulla Buxoriy, Abu Sayd Maxzum kabi mahalliy ixlosmandlarning xizmati katta. Ular o'lkaning mineralogiya, zoologiya, numizmatika, etnografiyasi, flora va fauna dunyosiga oid ajoyib boy kolleksiyalar to'g'ushagan. 1876-yilda Toshkent, 1896-yilda. Samarqand, 1899-yilda. Farg'onada o'lkashunoslik muzeylari ochildi. Muzey fondlari tasodifan to'plangan har xil jamlamalardan iborat bo'lib nodir, fan uchun ahamiyatli eksponatlar Rossiyaning markaziy muzey va kutubxonalariga jo'natilar edi.[6; 39]

1918-yilda knyaz Romanov to'plagan kolleksiyasi asosida O'rta Osiyoda birinchi badiiy muzeyi (hoz. O'zbekiston davlat san'at muzeyi), 1920 - 1930-yillarda Namangan, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Andijon, Termiz, Nukus va boshqa yirik shaharlarda o'lkashunoslik muzeylari ochildi. Muzeylarning davlat boshqaruvi tizimi shakllandi, tarixiy yodgorliklar va san'at obidalarini muhofaza etish komissiyalari (Turkkomstaris, 1922; Uzkomstaris, 1927) tashkil etildi. Bular mamlakat bo'ylab ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirib, muzeylar uchun materiallar to'pladilar. Keyinchalik muzeylar, asosan, O'zbekiston madaniyat vazirligi tasarrufida bo'lib, 3 ta muzey (O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, adabiyot va tabiat muzeylari) O'zbekiston FA tarkibida faoliyat olib bordi. 1940-70-yillarda O'zbekistonda muzeylarning keng tarmog'i yaratilgan: 1940-yilda 17 ta, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi binosi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi [11; 35].

1975-yilda 34 ta davlat muzeyi mavjud bo'lib, shulardan 4 tasi tarixiy, 4 ta memorial, 2 san'at va 15 ta o'lkashunoslik muzeylari edi. Xiva (1969), Samarqand (1982), Buxoro (1985)da muzey-qo'riqxonalar tashkil etildi, ular arxeologik, etnografik, madaniy-badiiy, me'moriy yodgorliklarni kompleks tarzda o'rganish va tashviq qilish uchun mo'ljallangan. Davlat muzeylari bilan birga o'lkashunoslik ahamiyatiga ega xalq muzeylari ham faoliyat olib borgan.

Xulosa. XX asrning 40 - 90-yillarida O‘zbekistonda muzey ishi murakkab tarixiy sharoitda shakllanib rivojlandi. Ikkinchi jahon urushi davrida muzeylar mavjud imkoniyatlar doirasida faoliyat yuritib, madaniy boyliklarni saqlash va targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynadi. Urushdan keyingi yillarda esa muzeylar tarmog‘i kengayib, yangi yo‘nalishlar va ekspozitsiyalar bilan boyidi. Biroq mazkur davrda muzeylar faoliyati ko‘p jihatdan sovet mafkurasi ta‘sirida bo‘lib, tarixiy jarayonlar bir tomonlama yoritilgan. Shunga qaramay, muzeylar xalqning tarixiy xotirasini saqlash, madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish hamda ilmiy-ma‘rifiy faoliyatni rivojlantirishda muhim o‘rin egalladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Антонова Н. *Музейное дело в СССР*. Москва, 1981.
2. Разгон А. *Теория и практика музейного дела*. Москва, 1988.
3. Шулепова Е. *Основы музейного дела*. Москва, 1989.
4. Дукельский В. *Музей и общество*. Москва, 1991.
5. Горбунов В. *Музеи в годы Великой Отечественной войны*. Москва, 1975.
6. Ўлжаева Ш. Музейшунослик (ўқув қўлланма). – Т: 2002. – Б. 28.
7. Мирзаалиев Э. Улуғ Ватан уруши ғалабасига наманганликларнинг қўшган ҳиссаси. – Наманган, 1990. – Б. 34.
8. Мирзаалиев Э., Қорабоев Э. Ноёб ёдгорликлар-тарихимиз гувоҳи. // Таълим ва тафаккур. 2007. – №3. – Б. 16.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том – 12. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 262.
10. Мирзаалиев Э., Бахриддинов О. Тарих – маънавият кўзгуси. – Наманган, 2006. – Б. 16.
11. Қодирова Т. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморчилиги. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 35.